$$\text{Re } \sigma = \frac{e^2 n}{\alpha / \tau} \left[1 - \frac{\omega^2 m^2}{(\alpha / \tau)^2} \right] = \sigma_{cm} \left[1 - \frac{\omega^2 m^2}{\left(\frac{\alpha}{m \tau}\right)^2} \right] \quad (2.1.9)$$


Demak, sekin o'zgaradigan elektr maydon yarim o'tkazgichga ta'sir qilsa, Haqiqiy qism (2.1.9) qonun bo'yicha kamayadi

Endi yuqori chastotalar sohasini ko'rishga o'tamiz, ya'ni $\omega^2 m^2 \gg (\alpha / \tau)^2$.

Bu o'ta yuqori chastotadagi elektr maydon chastotasiga to'g'ri keladi.

$$\operatorname{Re} \sigma = \frac{\alpha}{\tau} \frac{e^2 n}{w^2 m^2} \quad (2.1.10)$$

Demak, o'ta yuqori chastotalar sohasini haqiqiy qism chastotaning kvadratiga teskari kamayadi. Haqiqiy qismning chastotaga bog'liqligini quyidagicha 2.1.1-chizma asosida tasvirlash mumkin.



2.1.1-chizma. Elektr o'tkazuvchanlikning haqiqiy qismning chastotaga bog'liqligi.


Endi mavhum qismini chastotaga bog'liqligini tahlil qilamiz.

$$w^2 m^2 \ll (\alpha / \tau)^2 \quad \operatorname{Im} \sigma = \frac{e^2 n m w}{(\alpha / \tau)^2 \left[1 + \frac{m^2 w^2}{(\alpha / \tau)^2} \right]} = \frac{e^2 n m w}{(\alpha / \tau)^2} \quad (2.1.11)$$

$$w^2 m^2 \gg (\alpha / \tau)^2 \quad \operatorname{Im} \sigma = \frac{e^2 n m w}{(m w)^2 \left[1 + \frac{(\alpha / \tau)^2}{m^2 w^2} \right]} \approx \frac{e^2 n}{m w} \quad (2.1.12)$$

Yuqori chastotalar sohasida mavhum qism chastotaga teskari proporsional va grafigni quyidagicha tasvirlash mumkin (2.1.1-chizma). Ko'rinib turibdiki, chastotaning ma'lum qiymatida mavhum qism maksimal qiymatga erishadi. Endi mavhum qismning maksimal qiymatini topamiz.

$$\frac{d |\operatorname{Im} \sigma|}{d w} = e^2 n m \frac{d}{d w} \left[\frac{w}{(\alpha / \tau)^2 + m^2 w^2} \right] = e^2 n m \frac{(\alpha / \tau)^2 - m^2 w^2}{[(\alpha / \tau)^2 + m^2 w^2]^2}$$



2.1.2-chizma. Eelektr o'tkazuvchanlikning mavhum qismning chastotaga bog'liqligi.

$$\omega = \frac{\alpha}{m \tau} \quad (2.1.13)$$

Demak, mavhum qism $\omega = \frac{\alpha}{m \tau}$ chastotada maksimal qiymatga erishadi va u zarralarning to'qnashish vaqtiga teskari proporsional..

Mavhum qismini topamiz.

$$|\text{Im } \sigma| = \frac{e^2 n \omega m}{\left(\frac{\alpha}{\tau}\right)^2 + \omega^2 m^2} = \frac{e^2 n (\alpha / \tau)}{2 \left(\frac{\alpha}{\tau}\right)^2} = \frac{e^2 n \tau}{2 \alpha} = \frac{1}{2} \sigma_{cm} \quad (2.1.14)$$

Demak, kompleks elektr o'tkazuvchanlikning mavhum qismini o'lchash vositasida yarim o'tkazgichni xarakterlovchi muhim parametrlarni aniqlash mumkin. Bular tok tashuvchilarning relaksatsiyasi va konsentratsiyasi. Bu olingan natijalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, u yarim o'tkazgichlar fizikasida keng qo'llaniladi. Olingan natijalarning ayrim tatbiqlari ko'ramiz.

Hozirga qadar, tok tashuvchilarning q , n va massalarini farqlaganimiz yo'q. Shuning uchun, bu olingan natijalar umumiy xarakterga ega. Endi konkretlik uchun n va r tipdagi tok tashuvchilardan iborat yarim o'tkazgichlarni ko'rib chiqishni boshlaymiz. Bu holda ushbu tok tashuvchilarning harakat tenglamasi quyidagicha bo'lishini tushinish mumkin.

$$\begin{aligned}
m_n \frac{d\vec{v}_n}{dt} &= e_n \vec{E} - \frac{\alpha_n}{\tau_n} \vec{v}_n - \frac{\alpha}{\tau} (\vec{v}_n - \vec{v}_p) \\
m_p \frac{d\vec{v}_p}{dt} &= e_p \vec{E} - \frac{\alpha_p}{\tau_p} \vec{v}_p - \frac{\alpha}{\tau} (\vec{v}_p - \vec{v}_n)
\end{aligned}
\tag{2.1.15}$$

Bu tipdagi tenglamalardagi uch had n va p tipdagi tok tashuvchilarning to'qnashuvi oqibatida yuzaga keladi, $\tau \rightarrow \infty$ ya'ni n-p tipdagi tok tashuvchilar to'qnashmasa oxirgi hadni inobatga olmasalik mumkin. Bu holda natijaviy tok quyidagicha bo'ladi.

$$J = J_n + J_p = e_n v_n N_n + e_p v_p N_p = e_n N_n \frac{e_n \vec{E}}{\frac{\alpha_n}{\tau_n} + i m_n \omega} + e_p N_p \frac{e_p \vec{E}}{\frac{\alpha_p}{\tau_p} + i m_p \omega} = \sigma_{np} E
\tag{2.1.16}$$

σ_{np} n va p tipdagi tok tashuvchilardan iborat yarim o'tkazgichning kompleks elektr o'tkazuvchanligidir $\sigma_{np} = \sigma_n + \sigma_p$.

Natija. Demak n va p tipdagi tok tashuvchilarning to'qnashuvlari e'tiborga olinmasa bo'ladigan daraja kichik bo'lsa natijaviy elektr o'tkazuvchanlik ularning har biri hosil qilgan elektr o'tkazuvchanliklari yig'indisiga teng. Endi oxirgi natijani haqiqiy va mavhum qismi uchun yozamiz.

$$\operatorname{Re} \sigma_{np} = \operatorname{Re} \sigma_n + \operatorname{Re} \sigma_p \quad \operatorname{Im} \sigma_{np} = \operatorname{Im} \sigma_n + \operatorname{Im} \sigma_p \tag{2.1.17}$$

Mavhum qism uchun yozishimiz mumkin,

$$\left| \operatorname{Im} \sigma_{np} \right| = \left| \operatorname{Im} \sigma_n \right| + \left| \operatorname{Im} \sigma_p \right| = \frac{e_n^2 N_n m_n \omega}{\left(\frac{\alpha_n}{\tau_n} \right)^2 + m_n^2 \omega^2} + \frac{e_p^2 N_p m_p \omega}{\left(\frac{\alpha_p}{\tau_p} \right)^2 + m_p^2 \omega^2}
\tag{2.1.18}$$

$|e_n| = |e_p|$ $N = N_n = N_p$, bo'lsa (2.1.17) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\left| \operatorname{Im} \sigma_{np} \right| = e^2 N \left[\frac{m_n w}{\left(\frac{\alpha_n}{\tau_n} \right)^2 + m_n^2 w^2} + \frac{m_p w}{\left(\frac{\alpha_p}{\tau_p} \right)^2 + m_p^2 w^2} \right] \quad (2.1.19)$$

Endi maxsimunga to'g'ri keluvchi chastotani ko'raylik.

$$\frac{d}{dw} \left| \operatorname{Im} \sigma_{np} \right| = e^2 N \left[\frac{\left(\frac{\alpha_n}{\tau_n} \right)^2 - m_n^2 w^2}{\left[\left(\frac{\alpha_n}{\tau_n} \right)^2 + m_n^2 w^2 \right]^2} + \frac{\left(\frac{\alpha_p}{\tau_p} \right)^2 - m_p^2 w^2}{\left[\left(\frac{\alpha_p}{\tau_p} \right)^2 + m_p^2 w^2 \right]^2} \right]$$

Oxirgi ifodada $w^2 = x$, $a_n = \frac{\alpha_n}{\tau_n}$, $a_p = \frac{\alpha_p}{\tau_p}$ belgilash kiritamiz. Natijada quyidagi yozish mumkin.


$$\frac{d}{dw} \left| \operatorname{Im} \sigma_{np} \right| = e^2 N \left[\frac{a_n^2 - m_n^2 x}{[a_n^2 + m_n^2 x]^2} + \frac{a_p^2 - m_p^2 x}{[a_p^2 + m_p^2 x]^2} \right] = 0 \quad (2.1.20)$$

Umumiy maxraj berib suratni nolga tenglashtiramiz.

$$(a_n^2 - m_n^2 x)(a_p^2 + m_p^2 x)^2 + (a_p^2 - m_p^2 x)(a_n^2 + m_n^2 x)^2 = 0$$

$$Ax^3 + Bx^2 + Cx + D = 0$$

A, B, C, D koefitsienlar qavslarni ochib gruhlashtirishdan hosil bo'ladigan ifodalar. Rasmdan ko'rinib turibdiki, bu funktsiyaning ekstremum nuqtasi uchun kubik tenglama hosil bo'ldi. Shuning uchun umumiy holda bu grafikning uchta ekstremum nuqtasi bo'lishi tabiiy.



2.1.3-chizma. n-p elektr o'tkazuvchanlikning mavhum qismning chastotaga bog'liqligi.

Yarim o'tkazgichlarda tashqi magnit maydon ta'sirida kompleks elektr o'tkazuvchanlik.

Yarim o'tkazgichlarda tashqi magnit maydon ta'sirida kompleks elektr o'tkazuvchanlik.

Endi, tashqi magnit maydon ta'sir qilayotgan yarim o'tkazgichdagi tok tashuvchilar dinamikasi tahlil qilinadi. Nyutonning III qonuniga asosan, holat tenglamasi quyidagicha bo'ladi.

$$m \frac{dv}{dt} = q[v, H] - \frac{\alpha}{\tau} v \quad (2.1.21)$$

Maslani soddalashtirish uchun N - magnit maydoni z o'qi bo'yicha yo'nalgan deb olamiz.

$$H = (0, 0, H) \quad F_n = q \begin{vmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ v_x & v_y & v_z \\ 0 & 0 & H \end{vmatrix} = \vec{i} v_y H - \vec{j} v_x H + 0 \vec{k} \quad H \perp E$$

$$F_n = qH (\vec{i} v_y - \vec{j} v_x) \quad (F_n \perp H)$$


U holda (2.1.19) tenglamani quyidagicha yozish mumkin.

$$m \frac{dv_x}{dt} = qH v_y - \frac{\alpha}{\tau} v_x \quad m \frac{dv_y}{dt} = qH v_x - \frac{\alpha}{\tau} v_y$$

$$m \frac{dv_z}{dt} = -\frac{\alpha}{\tau} v_z \quad (2.1.22)$$

$$\begin{aligned} \frac{dv_z}{v_z} &= -\frac{\alpha}{m\tau} dt & \ln v_z &= -\frac{\alpha}{m\tau} t + \ln c \\ v_z &= c \cdot \exp\left(-\frac{\alpha}{m\tau} t\right) \end{aligned} \quad (2.1.23)$$

Natija. Demak, tok tashuvchilarning magnit maydonga perpendikulyar tashkil etuvchilari eksponentsial qonun bo'yicha kamayar ekan. Yetarlicha katta vaqtda nolga intiladi.



2.1.4-chizma. Guruppaviy tezlikning vaqtga bogliqligi.

Endi (2.1.22) tenglamalarning qolganlarini tahlil qilamiz. Ko'rinib turibdiki, ular o'zaro bog'langan ikkita tenglama sistemasini tashkil etadi. Shuning uchun quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{aligned} v_x &= ae^{i\omega t} & v_y &= be^{i\omega t} \\ \frac{dv_x}{dt} &= i\omega ae^{i\omega t} & \frac{dv_y}{dt} &= i\omega be^{i\omega t} \end{aligned} \quad (2.1.24)$$

$e^{i\omega t}$ ni tushirib qoldirish mumkin.

$$\left. \begin{aligned} miwa &= qHb - a \frac{\alpha}{\tau} \\ miwb &= -qHa - b \frac{\alpha}{\tau} \end{aligned} \right\} \quad (2.1.25)$$

$$\begin{aligned}
a \left(miw + \frac{\alpha}{\tau} \right) &= qHb \\
b \left(miw + \frac{\alpha}{\tau} \right) &= -qHa \quad \frac{a}{b} = -\frac{b}{a} \quad a^2 = -b^2 \\
i \frac{\alpha}{\tau} - mw &= qH \quad w = i \frac{\alpha}{m\tau} - \frac{qH}{m}
\end{aligned} \tag{2.1.26}$$

Demak, magnit maydoni ta'sirida tok tashuvchilarning harakati quyidagicha bo'ladi.

$$v_x = ae^{i\omega t} = a \exp \left[i \left(i \frac{\alpha}{m\tau} - \frac{qH}{m} \right) t \right] = a \exp \left(-\frac{\alpha t}{m\tau} \right) \exp \left(-i \frac{qH}{m} t \right)$$

Demak, magnit maydoni ta'sirida tok tashuvchilarning tezliklari

$w_0 = \frac{qH}{m}$ bilan davriy ravishda o'zgaradi. Endi xuddi shunday y komponentani yozish mumkin.

$$v_y = be^{i\omega t} = b \exp \left(-\frac{\alpha t}{m\tau} \right) \exp \left(-i \frac{qH}{m} t \right)$$

Endi xuddi avvalgicha o'xshash tok tashuvchilar yuzaga keltirilgan tokni topish mumkin.

$$\vec{J} = en \vec{v} = en \left(v_x \vec{i} + v_y \vec{j} + v_z \vec{k} \right) \tag{2.1.27}$$

Endi $\alpha = 0$ holni ko'ramiz, ya'ni yarim o'tkazgich tok tashuvchilari ideal erkin zarralardan iborat.

$$\vec{J} = en \vec{v} = en \left[a \vec{i} + b \vec{j} \right] \cdot e^{i\omega t} \tag{2.1.28}$$

Demak, tok zichligi ham davriy ravishda w_0 chastota bilan o'zgarar ekan.

2.2. Yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarning fluktuatsion ko'ndalang dielektrik sindiruvchanligi.

So'nggi vaqtlarda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish kritik harorati T_c ga yaqin haroratlardagi fluktuatsion ko'ndalang dielektrik sindiruvchanligi xususiyatlari tadqiqiga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga sabab $T \rightarrow T_c$ haroratlarda YuHO'O' fluktuatsion o'tkazuvchanligining quyi haroratli o'ta o'tkazgichlarnikiga nisbatan 10^3 - 10^5 marta kattaligidadir. Bu natija muhim tadbiqiy ahamiyatga ega bo'lib, YuHO'O' larning xarakterli xususiyatlarini tadqiq etishda keng qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, o'ta o'tkazgichlardagi fluktuatsion o'tkazuvchanlikni tavsiflovchi ikkita xarakterli kattalik mavjud bo'lib, ular mos ravishda Aslamazov-Larkin (AL) hamda Maki-Tompson (MT) fluktuatsion o'tkazuvchanlikni statik yaqinlashuvda (ya'ni $\omega \rightarrow 0$) tavsiflaydi. Ikkinchisi esa fluktuatsion o'tkazuvchanlikning chastotaviy bog'liqligini aks ettiradi. Agar o'tkazuvchanlik fluktuatsiyalari etarlicha katta bo'lsa, ma'lumki, bu holda Gauss yaqinlashuvi o'rinli bo'lmaydi. Chunki bu yaqinlashuv juda ham kichik fluktuatsiyalarnigina tavsiflash imkonini beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtda bu cheklashdan tashqari holda ham ishlash imkonini beruvchi va noxizig'iy fluktuatsiyalar nazariyalari ham ishlab chiqilmoqda.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, Ginzburg Landauning vaqtga bog'lik (ya'ni fazoviy dispersiya inobatga olinmagan holdagi) chiziqlilashtirilgan tenglamasi Lanjyeven fluktuatsiyalari yaqinlashuvida fluktuatsion ko'ndalang dielektrik sindiruvchanlik uchun quyidagi ifodaga olib keladi.

$$\text{Im } \varepsilon_1^f = A \cdot \left\{ \frac{\arctg k}{k} + \frac{1}{k^2} [1 + k^2] \right\}$$

Ma'lumki harorat o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik haroratiga juda ham yaqin bo'lsa normal metallarning o'tkazuvchanligi va diamagnitizmi keskin oshadi. Bunga sabab esa bunday sharoitlarda o'ta o'tkazuvchanlikda ishtirok etuvchi kuper juftlarining tasodifiy yoki fluktatsion tarzda hosil bo'lishidir.

Agar odatdagidek ko'ndalang elektr maydoni holi bilan chegaralansak, ya'ni $\text{div } \vec{E} = 0$ bo'lsa, o'ta o'tkazgichdagi tok zichligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$j(\nu, k) = -\frac{i\nu}{4\pi} E(\nu, k) \varepsilon_r^f(\nu, k),$$

Bu yerda ν va k - o'ta o'tkazgichdagi elektromagnit maydon chastotasi va to'lqin vektori, $E(\nu, k)$ - ν chastotasi va k to'lqin vektoriga mos keluvchi maydon kuchlanganligining Fure tashkil etuvchisi va $\varepsilon_r^f(\nu, k)$ ko'ndalang fluktuatsion dielektrik singdiruvchanlikdir.

[] ishda olingan natijaga ko'ra fluktuatsion dielektrik singdiruvchanlik umumiy holda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\varepsilon_r^f = \frac{16 \gamma^2 m^2 e^2 T_c L^3}{\omega^2} f(q, \omega)$$

Bu yerda m -elektronning massasi, e -elektronning zaryadi, T_c -yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik harorati, L -o'ta o'tkazuvchanlik fluktuatsiyalarining korrelyatsion masofasi, γ -o'ta o'tkazgichdagi elektromagnit to'lqinlarning so'nish chastotasi.

$f(q, \omega)$ esa o'tkazgichdagi elektromagnit to'lqinlarning chastotasi ν va to'lqin vektori k bog'liq murakkab funktsiya bo'lib, biz quyida uning faqat to'lqin vektori etarlicha katta bo'lgan qiymatlari ya'ni o'ta kichik to'lqin o'zunlikli elektromagnit to'lqinlar holi uchun tahlili bilan cheklanamiz.

$$\omega = 2m\gamma L^2\nu, \quad q = \frac{kL}{2}$$

Bu holda fluktuatsion dielektrik singdiruvchanlikning mavhum qismi quyi qismi uchun quyidagi muhim ifodani hosil qilamiz.

$$\text{Im } \varepsilon_r^f = \sigma_{AL} \varphi(q)$$

Bu yerda σ_{AL} - Aslamazov-Larkinning fluktuatsion o'tkazuvchanligi bo'lib, u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\sigma_{AL} = \frac{me^2 \gamma T_c L}{\pi}$$

Harorat T_c -kritik haroratga juda ham yaqin bo'lsa, L - korrelyatsion masofa

$$L \sim \frac{1}{\sqrt{T - T_c}}$$

bo'lganligi sababli bu masofa keskin ortadi. Bu esa σ_{AL} Aslamazov –Larkinning fluktuatsion o'tkazuvchanligining ham keskin tarzda oshuviga olib keladi, chunki u L ga proportsionaldir.


Endi $\varphi(q)$ funktsiyaning qaralayotgan chegaradagi ko'rinishini keltiramiz

$$\varphi(q) = A \cdot \left\{ \frac{\arctg q}{q} + \frac{1}{q^2} (1 - \sqrt{1 + q^2}) \right\}$$

Endi esa o'lchamsiz to'lqin vektori

$$q = \frac{kL}{2} = \pi \frac{L}{\lambda}$$

ekanligini inobatga olsak (bu yerda λ -elektromagnit to'lqin uzunligi), to'lqin soni etarlicha kichik bo'lsa ya'ni katta to'lqin uzunlikli elektromagnit to'lqinlar uchun bu funktsiya asimptotik tarzda birga intiladi. Aksincha juda ham kichik to'lqin uzunlikli elektromagnit to'lqinlar uchun bu funktsiyaning qiymati nolga intiladi.



2.2.1-chizma. Fluktuatsion o'tkazuvchanlikning elektromagnit to'lqin uzunligiga bog'lanish grafigi.

Shunday qilib, fluktuatsion ko'ndalang dielektrik singdiruvchanlik o'ta o'tkazgichlarning fluktuatsion o'tkazuvchanligini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib, u quyidagi hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi:

1. Harorat kritik haroratga juda ham yaqin bo'lsa
2. O'ta kichik to'lqin uzunlikli elektromagnit to'lqinlar yoki katta impulsli to'lqinlar uchun

Xulosa

7. Fluktuatsion ko'ndalang dielektrik singdiruvchanlik o'ta o'tkazgichlarning fluktuatsion o'tkazuvchanligini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib, u quyidagi hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

8. O'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik haroratiga juda ham yaqin bo'lsa normal metallarning o'tkazuvchanligi va diamagnitizmi keskin oshadi

9. Agar o'tkazuvchanlik fluktuatsiyalari etarlicha katta bo'lsa, ma'lumki, bu holda Gauss yaqinlashuvi o'rinli bo'lmaydi

III BOB. SOLITON MEXANIZMLI O'TA O'TKAZUVCHANLIKNING ENERGETIK TIRQISHI

3.1. O'tkazgichlardagi tok fluktuatsiyalari

Bizga ma'lumki har qanday o'tkazgichdagi elektr toki tok tashuvchilarning tartiblangan harakti tufayli hosil bo'ladi. Ammo har qanday metal o'tkazgichli tok tashuvchi elektronlar (erkin elektronlar) bilan bir qatorda ulardagi kristall panjaralarda joylashgan atomlarning issiqlik harakati ham mavjud bo'ladi. Shu bilan bir qatorda tok tashuvchilarning hajim birligidagi soni ham issiqlik harakati tezgi ham mavjud bo'ladi.

Bunday o'tkazgichlardagi tok sluktuatsiyalarini tasislash uchun o'tkazgichlardagi tok zichligi quyidagi ifoda bilan aniqlanishini esga olamiz:

$$\vec{j} = n|e\vec{v}| \quad (3.1.1)$$

bu yerda j - tok jizchiligi vektori, e - elektron zaryadi, n - hajm birligidagi erkin tok tashuvchilar (yoki elektronlar) soni (tok tashuvchilar konsentrasiyasi), $\vec{v}$ - zarralarning harakat tezlik vektori.

Bu ifodadan ko'rinib turibdiki tok jizligining fluktuasiyalari quyidagi ikki sabab tufayli yuzaga kelishi mumkin: 1) n - hajmi tok tashuvchilar sonining o'zgarishi va 2) v - tok tashuvchilar tezligining o'zgarish oqibatida.

Shuning uchun Broun harakati nazariyasi kashf etilganidan so'ng elektr zanjirlarida tebranish konturlarida hamda telegraf uzatish taqmoqlarida hosil bo'luvchi fluktasiyalar eng muhim chegaralashuvchi omil ekanligi tushunila boshlandi. Bu sohada ayniqsa Jonso kabi nazaryotchilarning xizmatlarini alohida etirof etish lozim

Endi yuqorida keltirilgan tok zichligi formulasidan foydalanib o'tkazgichdagi tok fluktuatsiyalarining topishga kirishamiz.

Buning uchun o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasi S va yzunligi L bo'lsa undagi tok quyidagi ifoda bilan aniqlanishini inobatga olamiz:

$$I = j_x s = ns|e|v_x = \frac{N}{SL} \cdot S|e|\vec{v} = \frac{|e|}{L} N v_x \quad (3.1.2)$$

Bu yerda N - o'tkazgichni kesib o'tuvchi tok tashuvchilar soni, l -o'tkazgichning uzunligi, v_x - tok tashuvchilar tezliklarining x - o'qidagi proeksiyalari.

Demak o'tkazgichdagi tok fluktuatsiyasi o'tkazgichni kesib o'tuvchi tok fluktuatsiyalarining soni hamda tezligining x -o'qidagi proyeksiyasining fluktuatsiyalari bilan aniqlanar ekan.

Agar ikkinchi ifodaning ikkala tomonini o'tkazgichning uzunligigz ko'paytirsak quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$Il = |e|N v_x \equiv \sum |e|v_{ix} \quad (3.1.3)$$

Bu yerda v_{ix} - o'tkazgichdan o'tuvchi i -raqamli electron tezligining proeksiyasi, yig'indi esa o'tkazgich orqali o'tuvchi barcha elektronlarni o'z ichiga oladi.

Demak oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki bu yig'indi qo'shiluvchilar soni ham (yani o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronlar soni) hamda elektronlar tezligining fluktuatsiyasi (yani elektronlarning issiqlik harakati) oqibatida yuzaga kelishini bildiradi.

Shuning uchun har qanday o'tkazgich (yarim o'tkazgich yoki o'ta o'tkazgich) dagi tokning oniy qiymatlari uning o'rtacha qiymatidan farq qiladi. Bunday hollarda tokning fluktuatsiyalari mavjud ekanligini bildiradi.

Endigi vazifa o'tkazgichlardagi tokning fluktuatsiyalarini aniqlashdan iborat.

Buning uchun biz har qanday tasodifiy o'zgaruvchi miqdorning fluktuatsiyasi quyidagi ifoda bilan aniqlanishidan foydalanamiz.

$$DI \equiv I^2 - \langle I \rangle^2 \quad (3.1.4)$$

Bu yerda DI - tok fluktuatsiyalari kattaligi,

$\langle I^2 \rangle$ - tok kvadratining o'rtacha qiymati,

$\langle I_o \rangle$ - tokning o'rtacha qiymati.

(3.1.2) ifodadan ko'rinib turibdiki o'tkazgichdagi tokning o'rtacha qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\langle I \rangle = \frac{|e|}{L} \langle N g_x \rangle \quad (3.1.5)$$

Bu ifodadagi $\langle N g_x \rangle$ - o'rtacha qiymatini topish uchun o'tkazgichdan o'tayotgan zarralar soni, N - tok tashuvchilarning tezligi proeksiyalari, g_x - bir-biriga bog'liq bo'lmagan tasodifiy kattaliklar ekanligidan foydalanamiz. Demak bu holda o'tkazgichdan o'tayotgan tokning tezligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\langle I \rangle = \frac{|e|}{L} \langle N \rangle \cdot \langle g_x \rangle \quad (3.1.6)$$

Bu yerda $\langle N \rangle$ - o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronlarning o'rtacha soni, $\langle g_x \rangle$ - elektronlarning x - o'qidagi tezlikning o'rtacha qiymati. Demak, elektronlarning tartiblangan harakati mavjud bo'lgandagi ya'ni o'rtacha tezlik proeksiyasi 0- dan farqli bo'lgandagina o'tkazgich orqali o'tuvchi tokning o'rtacha qiymati 0- dan farqli bo'ladi. Endi tok kvadratining o'rtacha qiymatini topamiz. Buning uchun (3.1.4) ifodani

$$DI = \langle [I(t) - \langle I \rangle]^2 \rangle \quad (3.1.7)$$

Bu yerda $I(t)$ - o'tkazgichdan o'tayotgan tokning oniy qiymati, $\langle I \rangle$ - o'tkazgichdan o'tayotgan tokning o'rtacha qiymati. Demak, oxirgi ifodadagi ayirmaning kvadratini ochib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$DI = \left\langle \left[\frac{|e|}{L} \sum g_{ix} - \frac{|e|}{L} \langle N \rangle \cdot \langle g_x \rangle \right]^2 \right\rangle \quad (3.1.8)$$

Bu yerda L -o'tkazgichning uzunligi, $\langle N \rangle$ - o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronlarning o'rtacha soni, $\langle g_x \rangle$ -o'rtacha elektronlarning tartiblangan harakat

tezligi. Bu ifodadagi (3.1.1) hadni hisoblash uchun o'tkazgichda harakatlanayotgan elektronning tezligini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$g_{ix} = g_{iTx} + g_{iUx} \quad (3.1.9)$$

Bu yerda g_{Tx} - elektronning tartiblangan harakatining x - o'qi bo'yicha proeksiyasi, g_{ix} - elektron issiqlik harakat tezligining x - o'qidagi proeksiyasi. U holda (3.1.8) (3.1.9) ifodalarga ko'ra quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$DI = \frac{e^2}{L^2} \left\langle \left[\sum_i (\nu_{iTx} + \nu_{iUx}) - \langle \nu_x \rangle N \right]^2 \right\rangle \quad (3.1.10)$$

Endi birinchi yig'indi quyidagiga teng ekanligini inobatga olamiz:

$$\sum_i (g_{iTx} + g_{iUx}) \equiv \langle g_x \rangle N + \sum_i g_{iUx} \quad (3.1.11)$$

Bu yerda $\langle g_x \rangle$ - elektronlarning tartiblangan harakatining x -o'qi bo'yicha o'rtacha tezligi 2 - had esa elektronlarning issiqlik harakati oqibatida hosil bo'lish tezligi fluktuatsiyasini bildiradi.

Endi N - o'tkazgichdan o'tuvchi elektronlar soning o'rtacha qiymati ham o'zgarib turishini hisobga olamiz:

$$N(t) = \langle N \rangle + \Delta N \quad (3.1.12)$$

Bu yerda $\langle N \rangle$ o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronlarning o'rtacha soni $\Delta N \rightarrow$ o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronlar sonining fluktuatsiyasini bildiradi.

(3.1.11) va (3.1.12) ifodalarni tok fluktuatsiyalarini aniqlovchi (3.1.8) ifodaga qo'yib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$DI = \frac{e^2}{L^2} \left(\sum_i \nu_{ix}^2 \right) - 2 \frac{e^2}{L^2} \sum_i \nu_{ix} \langle N \rangle \langle \nu_x \rangle + \frac{e^2}{L^2} \langle N \rangle^2 \langle \nu_x \rangle^2$$

Endi ushbu ifodaga kiruvchi har bir (3.1.13) qo'shiluvchisini o'rtacha qiymatini asosida alohida hisoblab quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} < \left(\sum v_{ix} \right)^2 > = < \left[< v_x > N + \sum v_{iUx} \right]^2 > = < v_x^2 > + 2 < v_x > < N > \sum v_{iUx} + \\ & + < \sum v_{iUx} \sum v_{iUx} > \end{aligned} \quad (3.1.13)$$

Biz bu ifodani olishda tok tashuvchilar tezliklarining va tok tashuvchilar sonlarining o'zgarishi bir-biriga bog'liq bo'lmagan tasodifiy qiymatlar qabul qilishini hisobga ildik yani bu holda ko'paytmaning o'rtacha qiymati ko'paytuvchilar o'rtacha qiymatining ko'paytmasiga teng.

U holda oxirgi ifodaning o'rtacha qiymatini quyidagi ko'rinish yozish mumkin:

$$\begin{aligned} < \left(\sum v_{ix} \right)^2 > = < v_x^2 > + 2 < N > \cdot < \Delta N > + < \Delta N^2 > + 2 < v_x > < N > + < \Delta N > + \\ & + \sum \sum < v_{iUx} v_{iUx} > = < v_x^2 > \left[N^2 + < \Delta N^2 > \right] + 2 < v_x > N + N < v_{iUx}^2 > \end{aligned} \quad (3.1.14)$$

Biz bu ifodani hosil qilishda issiqlik harakati tezligining o'rtacha qiymati (3.1.10)-da tengligini hamda tok tashuvchi zaryadlar o'rtacha soni o'zgarishining o'rtacha qiymati (0) - da tengligini inobatga olib yani:

$$< v_{iUx} > = 0 \quad < N(t) > = N \quad < \Delta N > = 0 \quad (3.1.15)$$

Shunga o'xshash tarzda keyingi ifodani o'rtacha qiymatini ham quyidagicha hisoblash mumkin.

$$\begin{aligned} < \sum v_{ix} \cdot < N > v_x > > = N \cdot < v_x > \left[< v_x > N + \sum v_{iUx} \right] = N < v_x > \cdot [< v_x > \cdot N + 0] \\ & = N^2 < v_x^2 > \end{aligned} \quad (16)$$

Bu yerda $< v_x >$ – elektronlarning tartibli harakati o'rtacha teligini bildiradi va nihoyat oxirgi ifodaning o'rtacha qiymatini topamiz:

$$< N^2 \cdot < v_x^2 > > = N^2 + 2 < N > \Delta N + \Delta N^2 \cdot < v_x^2 > = \left[N^2 + < \Delta N^2 > \right] < v_x^2 > \quad (3.1.17)$$

Endi topilganmos o'rtacha qiymatlarni (3.1.13) ifodaga qo'yib quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$DI = \frac{e^2}{L^2} = \left\{ \langle \mathcal{G}_x^2 \rangle [N^2 + \langle \Delta N^2 \rangle] + 2 \langle \mathcal{G}_x \rangle N + N \langle \mathcal{G}_{iux}^2 \rangle - 2 N^2 \langle \mathcal{G}_x^2 \rangle + \langle \mathcal{G}_x^2 \rangle [N^2 + \langle \Delta N^2 \rangle] \right\} =$$

$$= \frac{e^2}{L^2} \left\{ \langle \mathcal{G}_x \rangle^2 \right\} [2(N^2 + \langle \Delta N^2 \rangle) - 2 N^2] + 2 \langle \mathcal{G}_x \rangle N + N \langle \mathcal{G}_{iux}^2 \rangle$$

Ko'rinib turibdiki o'tkazgichdagi tok fluktuatsiyasi quyidagi ikkita hadning yig'indisi ko'rinishda yozish mumkin:

$$DI = \frac{e^2}{L^2} [\langle \Delta N^2 \rangle \cdot \langle \mathcal{G}_x^2 \rangle + N (2 \langle \mathcal{G}_x \rangle + \langle \mathcal{G}_{iux} \rangle)] \quad (3.1.19)$$

Natija:

Ko'rinib turibdiki har qanday o'tkazgichdagi tok fluktuatsiyasini quyidagi 2-ta turli fizikaviytabiatga ega bo'lgan 2-ta had ko'rinishida yozish mumkin.

1) had o'tkazgichdagi tok tashuvchilar soni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib shotki fluktuatsiyalari deyiladi. Bu fluktuatsiya faqat o'tkazgichdan tok o'tgandagina mavjud bo'ladi.

2) Had esa tok tashuvchilarning issiqlik harakati bilan bog'liq bo'lib odatdagi sharoitlarda uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$N [2 \langle \mathcal{G}_x \rangle + \langle \mathcal{G}_u^2 \rangle] \approx N \cdot \mathcal{G}_{kv}^2 \quad (3.1.20)$$

Chunki tok tashuvchilarning o'rtacha kvadratik tezligi ularning tartiblangan harakat tezligiga nisbatan judaham katta bo'ladi. Tok fluktuatsiyalarining issiqlik harakat bilan bog'liq bu qismi Jon Son fluktuatsiyalari deyiladi.

Shunday qilib ixtiyoriy o'tkazgichda tok fluktuatsiyalarini quyidagi ikki had ko'rinishda yozish mumkin;

$$DI = DI_{sh} + DI_j \equiv \frac{e^2}{L^2} \langle \mathcal{G}_x \rangle^2 \langle \Delta N^2 \rangle + \frac{e^2}{L^2} N \cdot \mathcal{G}_{kv}^2 \quad (3.1.21)$$

Demak oxirgi ifodaga ko'ra Shottki fluktuatsiyalari Jon Son fluktuatsiyalarining nisbati quyidaga teng:

$$\frac{DI_{sh}}{DI_j} = \frac{\langle \Delta N^2 \rangle g_T^2}{N \cdot g_{kv}^2} \quad (3.1.22)$$

Bu yerda g_T - tok tashuvchilar tartiblangan harakatining o'rtacha tezligi, v_{kv} -tok tashuvchilar issiqlik harakatining o'rtacha kvadratik tezligi, N -o'tkazgichdan o'tuvchi tok tashuvchilarning o'rtacha soni, $\langle \Delta N^2 \rangle$ -tok tashuvchilar sonining fluktuatsiyasi.

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki bu turli fizikaviy tabiatga ega bo'lgan tok fluktuatsiyalarning nisbati tok tashuvchilarning tartiblangan harakat tezligi ularning issiqlik harakati o'rtacha kvadratik tezligi hamda tok tashuvchilar soni shuningdek tok tashuvchilar sonining nisbatiga bog'liq holda u yoki bu fluktuatsiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Biz bu savolga malakaviy bitiruv ishining keyingi bo'limlarida javob beramiz.

3.2. Shottki fluktuatsiyalarining xususiyatlari

Biz oldingi bo'limda keltirib chiqargan tok fluktuatsiyalarri aslini olganda nafaqat metal o'tkazgichlar uchun balki yarimo'tkazgichlar hamda o'ta o'tkazgichlar uchun ham o'rinlidir. Bu ifodalardan ko'rinib turibdiki tok fluktuatsiyalari o'tkazgich uzunligining kvadratiga teskari proporsionaldir. Ya'ni bunday fluktuatsiyalar kichik hajmga ega bo'lgan yarim o'tkazgich yoki o'ta o'tkazgichlarda judaham yorqin namoyon bo'ladi.

Bu bo'limda asosiy e'tiborni Shottki fluktuatsiyalarriga qaratamiz. Oldingi natijamizga ko'ra Shottki fluktuatsiyalarida hosil bo'luvchi tok fluktuatsiyasi kvadratining o'rtacha qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = \Delta I_{sh} = \frac{e^2}{L^2} v_T^2 \langle \Delta N^2 \rangle \quad (3.2.1)$$

Demak shartli fluktuatsiyalariga mos keluvchi tokning o'rtacha kvadratik qiymatini topish uchun o'tkazgichdagi tok tashuvchilar sonining o'rtacha kvadratik fluktuatsiyasi ya'ni:

$$\langle \Delta N^2 \rangle \equiv \langle N^2 \rangle - \langle N \rangle^2 \quad (3.2.2)$$

N hisoblash mumkin bu yerda $\langle N^2 \rangle$ - tok tashuvchilar soni kvadratining o'rtacha qiymati va $\langle N \rangle$ - tok tashuvchilar soninig o'rtacha qiymatini bildiradi. Shuning uchun qat'iy qilib aytganda bu kattalikni hisoblash uchun o'tkazgichdagi tok tashuvchilarning energiyalar bo'yicha taqsimotini bilish lozim bo'ladi. Shuning uchun biz quyda uning ststistik fizika usullari yordamida olingan quyidagi ifodasidan foydalanamiz.

$$\langle \Delta N^2 \rangle = nV \quad (3.2.3)$$

Bu yerda n - o'tkazgichdagi erkin elektronlar yani tok tashuvchilar konsentratsiyasi, V - o'tkazgichning hajmi bu Shottki fluktuatsiyalariga mos keluvchi quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = \frac{e^2}{L^2} nV v_\tau^2 \quad (3.2.4)$$

Endi bu ifodani amaliyotda qo'lash mumkin bo'lgan qulay ko'rinishda keltiramiz ya'ni tok tashuvchilar tartiblangan harakatinin o'rtacha tezligi.

$$v_\tau = \frac{L}{t} \quad (3.2.5)$$

Ifoda bilan aniqlanishni inobatga olamiz bu yerda L o'tkazgichning uzunligi t -tok tashuchilarning o'tkazgich ichidagi harakat vaqti shuningdek o'tkazgichning hajmi:

$$V = SL \quad (3.2.6)$$

Ifoda bilan aniqlashni yodga olamiz bu yerda S - o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi. L - o'tkazgichning uzunligi. Shunday qilib oxirgi belgilashlar yordamida Shottki fluktuatsiyalari bilan bog'liq tok kvadratining o'rtacha qiymati uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\langle \Delta I^2 \rangle = \frac{e^2}{L^2} nSL \cdot \frac{L^2}{t^2} \equiv \frac{e}{t} \cdot enV \quad (3.2.7)$$

Ammo har qanday o'tkazgichdagi. Bizga ma'lumki tok zichligi orqali quyidagicha yozish mumkin.

$$I = jS \equiv en v_T S \equiv \frac{enL}{t} S \equiv \frac{enV}{t} \quad (3.2.8)$$

Shunday qilib tok kvadratining o'rtacha qiymati uchun quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = I \cdot \frac{e}{t}$$

Natija demak Shottki fluktuatsiyalari bilan bog'liq tok kvadratining o'rtacha qiymati o'tkazgichdan o'tayotgan tokning qiymatiga to'g'ri proporsional hamda tik tashchilarning o'tkazgichdagi harakat vaqtiga teskati proporsional bo'lar ekan.

Endi (3.2.4) ifodada olingan tok fluktuatsiyalari tavsivlovchi ifodani tajribada o'lchash qulay bo'lgan ko'rinishga keltiramiz.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = \frac{e^2}{L^2} nSL v_T^2 \equiv e \cdot \frac{enS v_T}{L} \cdot v_T \cdot v_T \quad (3.2.9)$$

Ammo o'tkazgichdan o'tuvchi tok $I = en v_T S$ (3.2.10) bo'lganligi uchun oldingi ifodani quyidagi ko'rinishda ham yozish mumkin.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = L \frac{e}{L} I v_T \quad (3.2.11)$$

Bu yerda e - elektronning zaryadi L - o'tkazgichning uzunligi v_T - elektronlarning tartiblangan harakat tezligi I - o'tkazgichdan o'tuvchi tok kuchi. Ammo boshqa tomondan

$$R = \rho \frac{L}{S} \quad (3.2.12)$$

bo'lganligi uchun bu ifodaga ko'ra

$$\frac{S}{L} = \frac{\rho}{R} \quad (3.2.13)$$

Bu yerda R - o'tkazgichning qarshiligi ρ - o'tkazgichning solishtirma qarshiligi va S - o'tkazgichning ko'ndalang kesimi uzunligi demak (3.2.13) ifodani (3.2.9) ifodaga qo'yib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\langle \Delta I^2 \rangle = e^2 n \frac{\rho}{R} v_T^2 \quad (3.2.14)$$

Natija: demak tok fluktuatsiyasining kvadrati tok tashuvchilar tartiblangan harakat tezligining kvadratiga to'g'ri proporsional hamda o'tkazgichning qarshiligiga teskari proporsional bo'lar ekan. Suning uchun tok fluktuatsiyasining kvadrating o'rtacha qiymati ma'lum kridek haroratda qarshiligi 0 - ga teng bo'ladigan o'ta-o'tkazgichlar uchun eng kuchli tarzda namoyon bo'ladi.

Demak biz olgan oxirgi natija muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lib hozirgi vaqtda ko'plab dunyoning ko'plab mamlikatlarida olib kirilayotgan yuqori harakli o'ta-o'tkazgichdagi fluktuatsion hodisalarni o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Olingan natijani tok tashuvchilar konsentratsiyasi $n \approx 10^{28} \text{ m}^{-3}$ hamda solishtirma qarshiligi $\rho = 4 \cdot 10^{-7} \text{ Om}$ bo'lgan Niklin strukurali o'ta-o'tkazgichlar uchun quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned}
< \Delta I^2 > &= \frac{2,56 \cdot 10^{-38} \cdot 10^{28} \cdot 4 \cdot 10^{-7}}{R} \nu_T^2 \\
&\equiv \frac{10^{-16} \nu_T^2}{Om}
\end{aligned}
\tag{3.2.15}$$

Demak tok tashuvchanlarning tartiblangan harakat tezligi

$$\nu_T = 1 \text{ mm / sek} \equiv 10^{-3} \text{ m / s}$$

Ekanligini inobatga olsak tok fluktuatsiyasi kvadratining o'rtacha qiymati uchun quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$< \Delta I^2 > \approx \frac{10^{-22}}{R} \tag{3.2.16}$$

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki agar o'ta-o'tkazuvchanlik qarshiligi $R_{q1mk} = Om$ tartibida bo'lsa tok fluktuatsiyasining qiymati quyidagiga teng bo'ladi.

$$\Delta I = \sqrt{< \Delta I^2 >} \approx 10^{-8} \text{ A} \approx 10 \text{ nA}$$

Ammo o'ta-o'tkazuvchlardagi maksimal kiritik tok ham juda kichik bo'lib uning maksimal qiymati 5-10 mkA atrofida bo'ladi. Shuning uchun ham bunday strukturalarda bir tahlil qilgan tok fluktuatsiyalari muhim rol o'ynaydi

3.3. Jonson fluktuatsiyasiylarining xususiyatlari

Bu bo'limda bir tok fluktuatsiyasiylarining o'rtacha qiymati uchun keltirib chiqarilgan ifodaning ikkinchi hadi bilan aniqlanuvchi:

$$< \Delta I_j^2 > = \frac{e^2}{L^2} N \nu_{kv}^2 \tag{3.3.1}$$

va Jonson fluktuatsiyasiylari deb ataluvchi fluktuatsiyasiylarning xususiyatlarini tahlil qilmiz. Bu yerda e - elektronning zaryadi, L - o'tkazgichning uzunligi N - o'tkazgich orqali o'tuvchi elektronning issiqlik harakati tezligi.

Demak avval takidlaganimizdek Jonson tok fluktuatsiyasiyalari elektronlarning issiqlik harakati o'rtacha kvadratik tezligi bilan aniqlanib, bizga ma'lumki u quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$v_{kv}^2 = \frac{kT}{m}, \quad (3.3.2)$$

Bu yerda:

K - Bolsman doimiysi T - o'tkazgichning absalut harakati m – elektronning massasi u holda Jonson tok fluktuatsiyasiylarining o'rtacha qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\langle \Delta I_j^2 \rangle = \frac{e^2}{L^2} N \cdot \frac{kT}{m} \quad (3.3.3)$$

Endi o'tkazgich orqali o'tuvchi o'tkazgichlarning o'rtacha soni:

$$N = nv \quad (3.3.4)$$

ekanligini inobatga olsak Jonson tok fluktuatsiyasiylarining o'rtacha qiymati uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz.

$$\langle \Delta I_j^2 \rangle = \frac{e^2}{L^2} nSL \cdot \frac{KT}{m} \equiv \frac{e^2 k}{m} n \frac{S}{L} T \quad (3.3.5)$$

Bu yerda n - tok tashuvchilar konsentiratsiyasi L - o'tkazgichning uzunligi S -o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi.

Oxirgi ifodani avvalgi bo'limda keltirilgan (3.3.3) ifodani qo'yib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\langle \Delta I_j^2 \rangle = \frac{e^2 k}{m} n \cdot \frac{\rho}{R} T. \quad (3.3.6)$$

Natija: ko'rinib turibdiki Jonson tok fluktuatsiyasi ham o'tkazgichning qarshiligiga teskari proporsional ya'ni ular ham juda kichik bu ham ya'ni

qarshilikka ega bo'lgan o'tkazgichlar uchun muhim ahamiyatga ega ikkinchi tomondan esa Jonson tok fluktuatsiyasiyalari absalut haroratga to'g'ri proporsional endi oxirgi natijani avvalgi bo'limdan ko'rib chiqqan Nikelin uchun qo'llasak quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$\langle \Delta I_j^2 \rangle = \frac{2,56 \cdot 10^{-38} \cdot 1,38 \cdot 10^{-23}}{9,1 \cdot 10^{-31}} \cdot \frac{4 \cdot 10^{-7}}{R} T \approx 10^{-37} \cdot \frac{T}{R} \quad (3.3.7)$$

Agar o'ta - o'tkazgichning qarshiligi $R = 10 \text{ nkOm} = 10^{-11} \text{ Om}$ hamda otkazgichning eng yuqori absalut harorati $T_{q175 \text{ k}}$ bo'lgan hol uchun Jonson tok fluktuatsiyasiyalarining o'rtacha qiymati quyidagiga tengligini topamiz.

$$\Delta I = \sqrt{\langle \Delta I_j^2 \rangle} \approx 10^{-12} \text{ A} \approx 1 \text{ nA}$$

demak bu holda ham Jonson tok fluktuatsiyasiyalari muhim ulushiga ega bo'ladi, chunki bunday hollarda o'ta-o'tkazuvchanlik toki ham juda kichik bo'ladi.

Yuqorida olingan natijani quyidagich ham talqin qilish mumkin:

Agar har bitta tok tashuvchi ekekronning harakati boshqalariga bog'liq emas deb qarasak u holda har qanday elektronning bir to'qnashuvidan ikkinchi to'qnashuvigacha bo'lgan harakat vaqtini quyidagicha yozish mumkin.

$$\tau = \frac{v - v_a}{a} \quad (3.3.8)$$

bu yerda v_0 - elektronning to'qnashuvigacha bo'lgan harakat tezligi.

$v = 0$ elektronning to'qnashuvdan keyingi holati a - elektroni elektr maydon kuchlanganligi tasirida oladigan tezlanishi bo'lib u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$a = \frac{F}{m} = \frac{vE}{m} \equiv - \frac{eE}{m} \quad (3.3.9)$$

Demak tok tashuvchilarning bir to'qnashuvdan ikkinchi to'qnashuvgacha o'rtacha to'qnashuv vaqti barcha elektronlar uchun bir xil bo'lib u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\tau = \frac{m v_a}{eE} \equiv \frac{2m}{eE} < v > \quad (3.3.10)$$

bu yerda $< v >$ elektronlarning bir to'qnashuvdan ikkinchi to'qnashuvgacha bo'lgan o'rtacha tezligi

$$< \Delta I_j^2 > \equiv \frac{e^2 k n S T}{m L \tau} \equiv \frac{e^2 k n S T}{m L \tau} \cdot \frac{2m}{eE} < v > \quad (3.3.11)$$

Endi o'tkazgichning o'tkazuvchanligi quyidagi ifoda bilan aniqlanishini inobatga olsak:

$$\sigma = \frac{1}{\rho} \equiv \eta e n \quad (3.3.12)$$

Bu yerda e - elektronning zayadi n -tok tashuvchlar Konsentiratsiyasi η -tok tashuvchilarning harakatchanligini bildiradi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\eta = \frac{e \tau}{2m} \quad (3.3.13)$$

Demak tok tashuvchilarning harakatchanligi ularning to'qnashuv vaqtlariga to'ri proportsional bo'lar ekan endi (3.3.12) va (3.3.13) ifodalarni (3.3.12) ifodaga qo'yib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$< \Delta I_j^2 > \equiv \frac{e^2 k}{m} n \frac{\rho}{R} T \equiv 2 \frac{KT}{R \tau} \quad (3.3.14)$$


Natija: Demak Jonson tok fluktuatsiyasiylarining o'rtacha qiymati absalyut haroratda to'f'ri proporsional hamda tok tashuvchilarning o'rtacha to'qnashuv vaqtida teskari proporsional bo'lsa ekan (3.3.1-chizma) Demak

Jonson tok fluktuatsiyasialari o'lchash yordamida biz o'rtacha to'qnashuv vaqti τ - ni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz bu esa muhim fizikaviy ahamiyatga ega bo'lgan kattalik bo'lib uni odatdagi usullar bilan aniqlash juda ham qiyin muammolardan biri hisoblanadi.

Endi Jonson toklarining fluktuatsiyasining o'rtacha qiymatini xuddi avvalgidek konkret hol uchun baholaymiz.

Buning uchun yuqori haroratli o'ta-o'tkazgichlar uchun xarakterli absolyut harorat $T \approx 170 \text{ K}$ ekanligini hamda xarakterli qarshilik $R \approx 10 \text{ m}\Omega$, shuningdek elektronlarning to'qnashuvlar orasidagi o'rtacha harorat vaqti $\tau \approx 1 \text{ mksek}$ tartibida deb qarasak (3.3.14) formulaga ko'ra Jonson tok fluktuatsiyasining o'rtacha qiymati uchun quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \langle \Delta I \rangle &= \sqrt{\langle \Delta I_j^2 \rangle} = \sqrt{2 \frac{KT}{R \tau}} = \sqrt{2 \cdot \frac{1,38 \cdot 10^{-23} \cdot 1,7 \cdot 10^2}{10 \cdot 10^{-12}}} \approx \\ &\approx 2,2 \cdot 10^{-5} \text{ A} \approx 22 \text{ mA} \end{aligned} \quad (3.3.15)$$



3.3.1-chizma. Jonson tok fluktuatsiyasialari kvadrati o'rtacha qiymatining o'ta-o'tkazgich qarshiligiga bog'lanish grafigi. ($\tau = 1 \text{ mks}$, $T = 170 \text{ K}$)

Demak keltirilgan hisoblashdan ko'rinib turibdiki Jonson tok fluktuatsiyasiyalari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib ular ayniqsa yuqori haroratli o'ta-o'tkazgichlar holida yorqin namoyon bo'ladi.

3.4.Soliton mexanizmli o'ta o'tkazuvchanlikning energetik tirqishi

Ma'lumki, o'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tish dielektrik tirqishning paydo bo'lishi va tok tashuvchilar uyg'onishlari energetik spektrining o'zgarishi oqibatida yuzaga keladi. Jumladan, quyi haroratli o'ta o'tkazuvchanlik Bardin-Kuper- Shriffer (BKSh) nazariyasi asosida ikki masala YuHO'O' holida hozircha o'zining to'la echimini topganicha yo'q. Shuning uchun quyida biz ushbu muammolarni kvazi bir o'lchovli bisoliton modeli asosida tadqiq etamiz. Bu nazariyaga ko'ra kvazi bir o'lchamli panjara (yoki zanjir)dagi uyg'onishlar ularning energiyasi Fermi energiyasiga yaqin bo'lganda spini nolga teng va ikki elektron zaryadiga ega bo'lgan nochizig'iy qo'zg'alishlar ya'ni biosolitonlar ko'rinishida tarqaladi. Ya'ni ular panjaraning deformatsion energiyasi hisobiga bisoliton o'ta o'tkazuvchan juftlashuvni yuzaga keltiradi. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalariga ko'ra ular kvazi bir o'lchovli panjara bo'ylab bir xil tezlik bilan tarqaluvchi bisoliton kondensatini hosil qiladi.

Shunday qilib, o'ta o'tkazuvchan juftlashuvni yuzaga keltiruvchi bisoliton mexanizmi ham mavjud bo'lib, ular panjara bo'ylab, tarqaluvchi davriy nochizig'iy to'lqinlar majmuasidan iboratdir. Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikning bisoliton modelidan kelib chiquvchi eng muhim natijalardan biri yuqori qiymatga ega kritik temperaturaning mavjud bo'lish imkoniyatidir. Bunda dielektrik (yoki energetik) tirqish o'zining eng katta qiymatiga ega bo'ladi va bu holda BKSh nazariyasidan farqli ravishda juftlashuv parametri $\lambda \approx 0,5$ ga teng bo'ladi.

Yuqoridagi xulosalarni isbotlash uchun shuni inobatga olamizki o'ta o'tkazuvchan elektronlar majmuasining hosil bo'lishi elektronlarning kristall panjaradagi siljishlari o'ziga xos tortishuv maydonini hosil qiladi. Natijada elektronlarning bu effektiv maydondagi harakati quyidagi nochizig'iy Shryodenger tenglamasi bilan tavsiflanadi.

$$\left(\alpha \frac{\partial^2}{\partial x^2} + V(x) + E + E_f - W \right) \psi(x) = 0$$

bu erda α - deformatsion o'zaro ta'sir doimiysi, $V(x)$ - effektiv tortishish maydoni potentsiali, E - elektron energiyasi, E_f - Fermi energiyasi va W - kristall panjaraning deformatsion energiyasi.


Bisoliton modelida effektiv o'zaro ta'sir potentsiali panjarada harakatlanuvchi elektronlarning to'lqin funktsiyasi kvadratiga proporsional bo'ladi. Shuning oqibatida mazkur holda elektronlarning qabul qilishi mumkin bo'lgan energiyalari odatdagi Bardin-Kuper-Shriffer modelidagiga qaraganda juda ham katta bo'ladi. Yuqoridagi tenglamadan ko'rinadiki o'zaro ta'sirning effektiv potentsiali etarlicha kichik bo'lsa bu tenglama BKSh modelini tavsiflovchi odatdagi Shryodenger tenglamasiga o'tadi.

Soliton mexanizmli yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikda energetik tirqish dielektrik tabiatga ega bo'lib, uning son qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$f(x) = \frac{x^2}{shx}$$

bu erda $x = \frac{\pi k_f}{g}$.

Bu ifodadan ko'rinadiki o'ta o'tkazuvchanlikning soliton modelida energetik tirqishning maksimal qiymati mavjud bo'lib, u taqriban $x = 2$ ga teng bo'lganda kuzatiladi.



3.4.1-chizma. Dielektrik tirqish energiyasining to'lqin soniga bog'liqligi grafigi.

Oxirgi ifoda o'zaro ta'sir doimiysi g birga nisbatan juda ham kichik bo'lganda odatdagi BKSh nazariyasi beradigan ifodaga o'tadi.

Xulosa

1. O'ta o'tkazuvchanlikning soliton modelida energetik tirqishning maksimal qiymati mavjud bo'lib, u taqriban $x = 2$ ga teng bo'lganda kuzatiladi.

2. Yuqoridagi tenglamadan ko'rinadiki o'zaro ta'sirning effektiv potentsiali etarlicha kichik bo'lsa bu tenglama BKSh modelini tavsiflovchi odatdagi Shryodenger tenglamasiga o'tadi.

3. Bisoliton modelida effektiv o'zaro ta'sir potentsiali panjarada harakatlanuvchi elektronlarning to'lqin funktsiyasi kvadratiga proporsional bo'ladi. Shuning oqibatida mazkur holda elektronlarning qabul qilishi mumkin bo'lgan energiyalari odatdagi Bardin-Kuper-Shriffer modelidagiga qaraganda juda ham katta bo'ladi

Xotima

Magistrlik ishida yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikning nohizig'iy mexanizmlari tadqiq etilib, ular asosida quyidagi natijalar olindi:

1. Fluktuatsion ko'ndalang dielektrik singdiruvchanlik o'ta o'tkazgichlarning fluktuatsion o'tkazuvchanligini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib, u quyidagi hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

2. O'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik haroratiga juda ham yaqin bo'lsa normal metallarning o'tkazuvchanligi va diamagnitizmi keskin oshadi.

3. Agar o'tkazuvchanlik fluktuatsiyalari etarlicha katta bo'lsa, ma'lumki, bu holda Gauss yaqinlashuvi o'rinli bo'lmaydi.

4. O'ta o'tkazuvchanlikning soliton modelida energetik tirqishning maksimal qiymati mavjud bo'lib, u taqriban $x = 2$ ga teng bo'lganda kuzatiladi.

5. Yuqoridagi tenglamadan ko'rinadiki o'zaro ta'sirning effektiv potentsiali etarlicha kichik bo'lsa bu tenglama BKSh modelini tavsiflovchi odatdagi Shryodenger tenglamasiga o'tadi.

6. Bisoliton modelida effektiv o'zaro ta'sir potentsiali panjarada harakatlanuvchi elektronlarning to'lqin funktsiyasi kvadratiga proporsional bo'ladi. Shuning oqibatida mazkur holda elektronlarning qabul qilishi mumkin bo'lgan energiyalari odatdagi Bardin-Kuper-Shriffer modelidagiga qaraganda juda ham katta bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak manaviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008y.
2. O’zbekiston Respublikasining ” Ta’lim to’g’risidagi qonuni ” Toshkent-1997-yil.
3. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent-1997-yil.
4. I.G.Aramanovich, V.I.Lyevin. Uravnenie matematicheskoy fiziki Moskva. Nauka. 1969g.
5. T.R.Rashidov. Politehnika lug’ati Toshkent, O’zSE Bosh redaksiyasi, 1989y.
6. J.I.Alferov. Geliotekhnika Moskva, Nauka, energiya.1988g.
7. V.A.Kirillin, V.V.Sichyev, A.E.SHeyndlin. Texnikaviy termodinamika Toshkent, O’qituvchi, 1979, 512b.
8. Lebedyev N.N. Spetsialno’e funktsii i ih prilozheniya Fizmatgiz 1963g.
9. A.G.Galkanov, N.S.Mamedniyazova. o primenimosti formulo’ intensivnosti pryamoy solnechnoy radiatsii, postupayuxey na ploskost Tashkent, Geliotekhnika №4, 1994g.
10. WWW Ziyonet.O’z- axbarot ta’lim resurslar internet portali.
11. W.W.W Google. com. Ning tegiahli portali A. A. Babushkin i dr. Metodo’ spekralnogo analiza. Izdatelstva Moskovskogo Universiteta 1962 god. 146 – 152 betlar.
12. K.Botirov, K.Saidov, H.Elliyeu. Qiya sirtli kapillyar namlanadigan quyosh suv chuchitgichi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2012 y., Qarshi. 122-123 b.
13. YU.S. Barash. Silo’ Van- der Vaalsa, M., Nauka, 1985, 280bet.
14. A.A. Abrikosov. Teoriya metallov, M., Nauka, 1987, 250bet
15. YU.S. Barash. Silo’ Van- der Vaalsa, M., Nauka, 1985, 280bet.
16. A.A. Abrikosov. Teoriya metallov, M., Nauka, 1987, 250bet
17. Tezisi dokladov Mejdunarodnoy konferentsii “ Fundamentalno’e problemo’ VTSP”, Moskva, FI RAN, 2004, 390 S.

18. A.S. Davo'dov. Solitono' v molekulyarno'h sistemah, Kiyev, Naukova Dumka, 1992, 250s.

19. Ataulloyev B., Jumayev M.R. "Yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarning fluktuatsion ko'ndalang dielektrik sindruvchanligi" Yosh olimlar va talabalarning "XXI-intellektual avlod asri" ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 256-bet.

20. Ataulloyev B., Jumayev M.R. "Saliton mehanizmli o'ta o'tkazuvchanlikning energetik tirqishi" Yosh olimlar va talabalarning "XXI-intellektual avlod asri" ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 256- bet.